

ADVOKATGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN INTIZOMIY JAZO SIFATIDA JARIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saddam Qodiraliyev

TDYU Jinoiy odil sudlov fakulteti Tadqiqot markazi ilmiy xodimi

s.qodiraliyev@tsul.uz

Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19913608>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi advokatga nisbatan jarima tarzidagi intizomiy jazo chorasi qo'llashning huquqiy tabiati, zarurati va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Unda O'zbekiston advokatura qonunchiligida advokatlarga nisbatan jarima tarzidagi intizomiy jazo mavjud emasligi, biroq amaldagi jazo choralari tizimida ogohlantirish bilan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish kabi og'ir choralar o'rtasida mutanosib ta'sir vositasiga ehtiyoj borligi asoslantirilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida jarima miqdorini belgilash, uni qo'llash mezonlari va jarimadan tushadigan mablag'larning maqsadli yo'naltirilishi yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: advokat; intizomiy javobgarlik; intizomiy jazo; jarima; advokatura; kasb etikasi; mutanosiblik; intizomiy ish yuritish; xorijiy tajriba.

Аннотация. В данном тезисе анализируются правовая природа, необходимость и особенности применения штрафа в качестве дисциплинарного взыскания в отношении адвоката. Обосновывается, что в законодательстве Республики Узбекистан об адвокатуре штраф как дисциплинарное взыскание в отношении адвокатов не предусмотрен, однако в действующей системе дисциплинарных мер существует потребность в соразмерной мере воздействия между предупреждением и более строгими мерами, такими как приостановление или прекращение действия лицензии. Также на основе зарубежного опыта выдвигаются предложения по определению размера штрафа, критериям его применения и целевому использованию средств, поступающих от штрафов.

Ключевые слова: адвокат; дисциплинарная ответственность; дисциплинарное взыскание; штраф; адвокатура; профессиональная этика; соразмерность; дисциплинарное производство; зарубежный опыт.

Abstract. This thesis analyzes the legal nature, necessity and specific features of applying a fine as a disciplinary sanction against a lawyer. It substantiates that Uzbek legislation on the legal profession does not currently provide for a fine as a disciplinary sanction against lawyers; however, the existing system of disciplinary measures requires a proportionate mechanism between a warning and more severe measures such as suspension or termination of a license. Based on foreign experience, the thesis also puts forward proposals on determining the amount of a fine, criteria for its application and the targeted use of funds received from disciplinary fines.

Keywords: lawyer; disciplinary liability; disciplinary sanction; fine; bar; professional ethics; proportionality; disciplinary proceedings; foreign experience.

Ma'lumki, advokatura instituti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Advokatlik faoliyati faqat huquqiy maslahat berish yoki sudda vakillik qilish bilan cheklanmaydi. Ushbu faoliyat ishonch bildiruvchi shaxs bilan advokat o'rtasidagi ishonch, kasbiy sirni saqlash, halollik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va kasb etikasi qoidalariga qat'iy rioya qilish kabi mezonlarga asoslanadi. Shu sababli advokat tomonidan sodir etilgan intizomiy nojo'ya xatti-harakat faqat bitta ish yoki bitta ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlariga ta'sir etib qolmay, balki advokatura institutining umumiy nufuzi va jamiyatdagi obro'siga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi advokatura qonunchiligida advokatning intizomiy javobgarligiga oid ayrim ta'sir choralari belgilangan. Xususan, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilgan taqdirda unga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanishi nazarda tutilgan.¹ Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda advokatga nisbatan jarima tarzidagi intizomiy jazo qo'llash imkoniyati mavjud emas. Bu esa advokatlarning intizomiy javobgarligi tizimida ayrim holatlarda mutanosib ta'sir chorasini tanlash imkoniyatini cheklaydi.

Amaliyotda shunday vaziyatlar uchrashi mumkinki, advokatning xatti-harakati ogohlantirish bilan cheklanish uchun yetarli darajada yengil emas, biroq litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish kabi og'ir chora qo'llash uchun ham yetarli asos bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda intizomiy jazo tizimida oraliq, ta'sirchan va ayni paytda advokatlik faoliyatini bevosita cheklab qo'ymaydigan chora mavjud bo'lishi lozim. Nazarimizda, jarima tarzidagi intizomiy jazo aynan shunday vazifani bajarishi mumkin.

Jarima tarzidagi intizomiy jazoni ma'muriy yoki jinoiy-huquqiy jarima bilan aynanlashtirish to'g'ri emas. Advokatga nisbatan qo'llaniladigan jarima davlat majburlovining umumiy chorasi sifatida emas, balki advokatlik kasbining ichki intizomi, kasbiy mas'uliyat va advokatura obro'sini ta'minlashga qaratilgan maxsus intizomiy ta'sir chorasi sifatida qaralishi lozim. Uning asosiy maqsadi advokatni moliyaviy jazolashdan iborat bo'lmasligi kerak. Aksincha, jarima advokatning kasbiy majburiyatlarga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlash, takroriy intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarning oldini olish va advokatura institutiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur.

Jarima jazosining birinchi o'ziga xos xususiyati uning mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Intizomiy javobgarlik tizimida jazo sodir etilgan xatti-harakatning og'irligi, oqibati, advokatning avvalgi faoliyati, ayb shakli va ishning boshqa holatlariga mos bo'lishi kerak. Ogohlantirish ayrim hollarda yetarli ta'sir kuchiga ega bo'lmasligi mumkin. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish esa advokatning kasbiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jarima esa aynan shu ikki chegara o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlaydigan chora sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi xususiyat jarima jazosining individual yondashuv imkonini kengaytirishidir. Intizomiy ishlarni ko'rib chiqishda barcha holatlarga bir xil yondashish adolatli natija bermaydi. Masalan, advokatning bir martalik ehtiyotsizligi, kasbiy majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi, ishonch bildiruvchi shaxs bilan aloqa yuritishda sustkashlikka yo'l qo'yganligi yoki kasb etikasi qoidalariga rioya etishda kamchilikka yo'l qo'yganligi turli og'irlik darajasiga

¹ O'zbekiston Respublikasi. (1996). Advokatura to'g'risidagi Qonun.

ega bo'lishi mumkin. Jarima jazosining mavjudligi intizomiy ishni ko'ruvchi organga xatti-harakatning real mazmunidan kelib chiqib, unga mos ta'sir chorasini tanlash imkonini beradi.

Uchinchidan, jarima intizomiy javobgarlikning profilaktik vazifasini kuchaytiradi. Ogohlantirish ko'proq ma'naviy ta'sir chorasi sifatida namoyon bo'lsa, jarima aniq moddiy oqibat keltirib chiqaradi. Shu sababli u advokatni kelgusida kasbiy majburiyatlariga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Biroq jarima advokatning mustaqilligiga ta'sir etuvchi yoki uning qonuniy protsessual faoliyatini cheklovchi vositaga aylanmasligi kerak. U faqat advokatura to'g'risidagi qonunchilik, kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri yoki advokat qasamyodi buzilganligi aniq isbotlangan hollarda qo'llanishi lozim.

Xorijiy davlatlar tajribasi advokatlarga nisbatan jarima tarzidagi intizomiy jazo qo'llash amaliyoti mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Polsha qonunchiligida advokatlarga nisbatan moliyaviy jarima intizomiy jazo turlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu jarimadan tushadigan mablag'lar advokatura maqsadlari uchun yo'naltiriladi.² Armaniston qonunchiligida ham advokatga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazolar qatorida jarima nazarda tutilgan bo'lib, jazo tanlashda xatti-harakatning og'irligi, oqibatlari, takroriyliigi va yetkazilgan zarar miqdori kabi holatlar inobatga olinadi.³ Bu tajriba jarima jazosining faqat pul undirish vositasi emas, balki kasbiy intizomni ta'minlashga qaratilgan yuridik mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Yevropa advokatlar kengashlari va huquq jamiyatlari kengashi tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarda ham ayrim davlatlarda advokatlarga nisbatan jarima qo'llash intizomiy javobgarlik choralardan biri sifatida ko'rsatilgan.⁴ Bunda jarimaning samaradorligi, avvalo, uning aniq huquqiy asoslari, oqilona miqdori, shikoyat qilish tartibi va ijro mexanizmining puxta belgilanganligiga bog'liq.

O'zbekiston huquq tizimi nuqtai nazaridan qaralganda, intizomiy javobgarlik doirasida jarima qo'llash mutlaqo begona institut emas. Mehnat qonunchiligida xodimga nisbatan intizomiy jazo sifatida jarima qo'llash imkoniyati mavjud.⁵ Albatta, advokatning intizomiy javobgarligi mehnat intizomiy javobgarligidan huquqiy tabiati, subyeksi va qo'llash tartibi jihatidan farq qiladi. Shunga qaramay, milliy huquq tizimida intizomiy ta'sir chorasi sifatida jarima qo'llash yondashuvi mavjudligi advokatura sohasida ham ushbu chora nazariy va amaliy jihatdan joriy etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Jarima jazosini joriy etishda eng muhim masalalardan biri uning miqdorini belgilashdir. Jarima miqdori haddan tashqari past bo'lsa, u ta'sirchan intizomiy chora sifatida o'z vazifasini bajara olmaydi. Aksincha, haddan tashqari yuqori miqdor advokatga nisbatan nomutanosib moliyaviy yuk bo'lib, uning kasbiy faoliyatiga asossiz ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois jarima miqdori advokatning mustaqilligiga putur yetkazmaydigan, biroq intizomiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan oqilona chegaralarda belgilanishi kerak.

Jarima miqdorini belgilashda bir necha mezonlardan foydalanish mumkin. Birinchi mezon — Advokatlar palatasiga to'lanadigan a'zolik badali miqdoriga bog'lash. Bu usul advokatura tizimining ichki xususiyatiga yaqin bo'lsa-da, a'zolik badali miqdori ichki qarorlar

² Republic of Poland. (1982). The Act of 26 May 1982: The Law on the Bar.

³ Republic of Armenia. (2004). *Law of the Republic of Armenia on the Profession of Advocate*.

⁴ Council of Bars and Law Societies of Europe. (2011). *Summary of disciplinary proceedings and contact points in the EU and EEA Member States*.

⁵ O'zbekiston Respublikasi. (2022). Mehnat kodeksi.

bilan o'zgarishi mumkinligi sababli jarima miqdorini barqaror belgilashda muayyan noqulaylik tug'diradi. Ikkinchi mezon — advokatning daromadi yoki yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma qiymatiga bog'lash. Biroq bu usul ham amaliy jihatdan murakkab, chunki advokatning daromadi har doim ham bir xil emas va uni aniqlash intizomiy ish yuritish jarayonini ortiqcha murakkablashtirishi mumkin. Uchinchi mezon — jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdoriga bog'lash. Nazarimizda, O'zbekiston sharoitida aynan shu yondashuv nisbatan maqbul hisoblanadi.

Bazaviy hisoblash miqdori milliy qonunchilikda keng qo'llaniladigan, hisob-kitob uchun qulay va barqaror mezondir. Jarima miqdorining ushbu ko'rsatkichga bog'lanishi, bir tomondan, intizomiy jazoning aniq chegaralarini belgilashga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy sharoit o'zgarishiga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, jarima miqdori qonunda qat'iy bitta summa sifatida emas, balki eng kam va eng yuqori chegaralar doirasida belgilanishi maqsadga muvofiq. Bunday tartib intizomiy ishni ko'ruvchi organga har bir holatning xususiyatidan kelib chiqib, adolatli va mutanosib miqdorni tanlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, advokatga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining **bir baravaridan o'n baravarigacha** bo'lgan doirada belgilash mumkin. Ushbu yondashuv bir necha jihatdan asosli hisoblanadi. Birinchidan, bunday chegara jarimani shunchaki rasmiy ogohlantirish darajasidagi ta'sirsiz choraga aylantirib qo'ymaydi. Ikkinchidan, u advokatlik faoliyatini cheklab qo'yadigan haddan tashqari og'ir moliyaviy oqibatni ham keltirib chiqarmaydi. Uchinchidan, mazkur oraliq intizomiy komissiyaga sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning og'irligi, oqibati va advokatning shaxsiga oid holatlarni baholash imkonini beradi.

Bunda jarima miqdorini belgilashda aniq mezonlar nazarda tutilishi lozim. Xususan, advokat tomonidan sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning xususiyati, uning ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlariga ta'siri, advokatura obro'siga yetkazilgan zarar darajasi, xatti-harakatning takroriy yoki bir martalik ekanligi, advokatning avvalgi intizomiy holati, ayb shakli, advokat tomonidan oqibatlarni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralar hamda intizomiy ish yuritish jarayonidagi munosabati inobatga olinishi zarur. Ana shu mezonlar jarima miqdorini subyektiv belgilashning oldini oladi va intizomiy jazoning adolatli qo'llanishiga xizmat qiladi.

Jarima miqdorini belgilashda intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarni oldindan sun'iy ravishda mayda toifalarga ajratish maqsadga muvofiq emas. Chunki advokatlik faoliyatida har bir holat o'zining sharoiti, oqibati va kasbiy majburiyatlarga ta'siri bilan farqlanadi. Shu bois qonunchilikda faqat umumiy mezonlar va jarimaning chegaralari belgilanishi, aniq miqdor esa intizomiy ish materiallari har tomonlama ko'rib chiqilgandan so'ng asoslantirilgan qaror bilan aniqlanishi lozim. Bunday yondashuv intizomiy ishni ko'ruvchi organning vakolatini saqlab qoladi, biroq uni qonuniy mezonlar bilan cheklaydi.

Jarimadan tushadigan mablag'larning qayerga yo'naltirilishi ham muhim masaladir. Nazarimizda, jarima mablag'lari davlat budjetiga emas, balki Advokatlar palatasi yoki uning tegishli hududiy boshqarmasi hisobiga yo'naltirilishi lozim. Chunki mazkur jarima ma'muriy jazo emas, balki advokatura tizimining ichki intizomiy chorasi hisoblanadi. Polsha tajribasida jarimadan tushgan mablag'larning advokatura maqsadlari uchun sarflanishi belgilangani ham ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.⁶

⁶ Republic of Poland. (1982). *The Act of 26 May 1982: The Law on the Bar*.

Biroq jarimadan tushgan mablag'lar umumiy tartibda sarflanib ketmasligi kerak. Ularni advokatlar intizomiy ishlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq tashkiliy xarajatlarni qoplash, intizomiy komissiyalar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, advokatlar uchun kasb etikasi bo'yicha seminarlar o'tkazish, intizomiy amaliyotni umumlashtirish, advokatlik faoliyatida profilaktik tushuntirish ishlarini kuchaytirish hamda elektron intizomiy monitoring mexanizmlarini rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Bunday tartib jarima jazosining faqat javobgarlik chorasi emas, balki advokatura tizimini sog'lomlashtirish va profilaktika vositasi sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Jarima jazosining ijro mexanizmi ham aniq va oqilona bo'lishi kerak. Fikrimizcha, intizomiy komissiya qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab advokatga jarimani ixtiyoriy to'lash uchun muayyan muddat berilishi lozim. Ushbu muddat ichida jarima to'lanmasa, bu holat alohida baholanib, advokatning intizomiy qarorni bajarmaganligi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Biroq jarimani belgilangan muddatda to'lamaganlik advokatlik faoliyatini avtomatik to'xtatib turishga olib kelmasligi kerak. Chunki bunday oqibat jarimaning oraliq va mutanosib jazo sifatidagi mazmunini o'zgartirib yuboradi.

Jarima jazosini qo'llashda advokatning protsessual kafolatlari ham to'liq ta'minlanishi zarur. Advokat intizomiy ish materiallari bilan tanishish, tushuntirish berish, dalillar taqdim etish, vakil orqali ishtirok etish, qaror ustidan yuqori organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Intizomiy komissiya qarorida jarima qo'llash asoslari, uning miqdori va miqdorni belgilashda inobatga olingan holatlar aniq ko'rsatilishi lozim. Qaror yetarli asoslantirilmagan bo'lsa, jarima adolatli intizomiy chora sifatida emas, balki subyektiv moliyaviy ta'sir vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, jarima jazosini qo'llash advokatning mustaqilligiga putur yetkazmasligi kerak. Advokat protsessda faol pozitsiya bildirgani, ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarini qat'iy himoya qilgani, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar qarorlariga qonuniy e'tiroz bildirgani uchun intizomiy javobgarlikka tortilmasligi lozim. Jarima faqat advokatning kasbiy majburiyatlarni buzganligi, kasb etikasi qoidalarga rioya etmaganligi, advokatlik siri yoki qasamyodiga zid harakat qilganligi aniq dalillar bilan tasdiqlangan hollarda qo'llanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, advokatga nisbatan jarima tarzidagi intizomiy jazoni joriy etish O'zbekiston advokatura qonunchiligini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jazo turi ogohlantirish bilan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish kabi og'ir choralar o'rtasida muvozanatli mexanizm sifatida xizmat qiladi. Jarima advokatlarning kasbiy mas'uliyatini oshirish, intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarning oldini olish, advokatura institutining obro'sini saqlash hamda intizomiy jazo choralarini mutanosib qo'llash imkonini beradi.

Shu bois "Advokatura to'g'risida"gi Qonun va advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritishni tartibga soluvchi hujjatlarda jarima tarzidagi intizomiy jazoni nazarda tutish maqsadga muvofiq. Bunda jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan o'n baravarigacha bo'lgan doirada belgilash, aniq miqdorni esa sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning og'irligi, oqibati, takroriyliqi, advokatning intizomiy holati va ishning boshqa muhim jihatlaridan kelib chiqib aniqlash lozim. Jarimadan tushadigan mablag'larni Advokatlar palatasi tizimida kasbiy intizom, profilaktika, intizomiy komissiyalar faoliyati va kasb etikasi bo'yicha o'quv-tushuntirish ishlarini rivojlantirishga yo'naltirish ushbu jazo turining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Council of Bars and Law Societies of Europe. (2011). *Summary of disciplinary proceedings and contact points in the EU and EEA Member States*. https://www.ccbe.eu/NTCdocument/Table_discipline_Ma1_1335781934.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi. (1996). *Advokatura to'g'risidagi Qonun*. <https://lex.uz/docs/-54503>
3. O'zbekiston Respublikasi. (2022). *Mehnat kodeksi*. <https://lex.uz/docs/-6257288>
4. O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri. (2025). *O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida nizomni tasdiqlash haqidagi buyruq, ro'yxat raqami 3637*. <https://lex.uz/uz/docs/-7619714>
5. Republic of Armenia. (2004). *Law of the Republic of Armenia on the Profession of Advocate*. OSCE Legislationline. <https://legislationline.org/taxonomy/term/13997>
6. Republic of Poland. (1982). *The Act of 26 May 1982: The Law on the Bar*. Polish Bar Council. https://www.adwokatura.pl/admin/wgrane_pliki/file-poa-ang-31382.pdf